



SA'DIY SHE'ROZIYNING "GULISTON" ASARINING HIKOYATLARI
BADIYYATI

Shermo'minova Jasmina

*Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti
o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 123-guruh talabasi
jshermominova@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarining hikoyatlari yoritib beriladi hamda tahlil qilinadi, shuningdek, Sheroziy haqida ma'lumot berilib, "Guliston" asarining badiyyati, uning hozirgi kundagi dolzarbligi va hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar hamda hikoyatlarning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyatlari haqida aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Sa'diy Sheroziy, asar, "Guliston", hikoyat, g'oya, badiyyat.*

Abstract: *This article highlights and analyzes the stories in Sheikh Saadi Shirazi's work "Guliston", provides information about Shirazi, and discusses the artistic merit of "Guliston", its relevance today, and the ideas put forward in the stories, as well as the educational significance of the stories today.*

Keywords: *Saadi Shirazi, work, "Guliston", story, idea, art.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются и анализируются рассказы из произведения шейха Саади Ширази «Гулистон», дается информация о Ширази, обсуждаются художественные достоинства «Гулистона», его актуальность сегодня, идеи, высказанные в рассказах, а также образовательное значение рассказов сегодня.*

Ключевые слова: *Саади Ширази, произведение, «Гюлистан», сюжет, идея, искусство.*

Nasr va nazm gulistonida yagona, shu gulistonning gul-u lolalaridek nafis, o'z nomiga munosib "Guliston" asari Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Shayx Muslihiddin Sheroziy tomonidan yozilgan, o'rta va yaqin sharq o'lkalarida Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur. Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy 1203-yili Sheroz shahrida tug'ilgan. Otasi Sheroz otabegi Sa'd binni Zangiyning mulozimlaridan bo'lgan. Lekin u 10—11 yoshlarida otadan yetim qoladi. Saroy tomonidan nafaqa tayinlangan bo'lsa-da, oilaning moddiy ahvoli og'ir edi. Mayda savdogarchilik bilan shug'ullangan akasining ham bozori tezda kasod bo'ladi. Shunga qaramay, bilimga chanqoq Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish uchun xalifalik poytaxti, o'sha davrning eng yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Dongdor «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarfu nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib xamda boshqa tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. Taniqli tasavvuf olimi va faylasuf adib



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy qo'lida tahsil oladi.

XI asrda saljuqiy sultonlardan bir nechtasiga vazirlik qilgan mashhur davlat va jamoat arbobi Nizomulmulk asos solgan «Nnzomiya» madrasasi 6 ming talabani o'z bag'riga olsa, «Mustansiriya» kutubxonasida 70 ming jildidan ortiq kitob bo'lgan. Bu ikki ulkan madrasaning musulmon Sharqidagi nufuzini shundan ham bilsa bo'ladi. Talabalar orasida, ayniqsa, zabardast arab shoiri Mutanabbiy she'rlariga qiziqish kuchli edi. Bu mutolaalar keyinchalik Sa'diy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U bu yerdagi ilmiy-adabiy davralarda faol ishtirok etib, bilimining keng va chuqurligi, dalillarining o'tkir va asosliligi, voizlik iqtidori tufayli hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilar va bahsu munozaralarda hamisha g'olib chiqar edi. Uning ajoyib asarlari o'zbeklar orasida ham mashhurdir. "Guliston" va "Bo'ston" asarlari o'zbek maktablarida darsliklar sifatida o'tilganligi haqida ma'lumotlar ham bor. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa'diyning mavqei juda baland, u birinchi bo'lib g'azal formasini mustaqil janri darajasiga ko'tardi. Uning kulliyotiga to'rtta devon to'plami kiritilgan. Kulliyotiga kiritilgan badiiy asarlar ichida eng mashhurlari 1257- yilda yozilgan "Bo'ston" va 1258-yilda yozilgan "Guliston" asarlaridir. "Guliston" o'ziga xos didaktik hikoyalar va she'riy aforizmlar to'plamidir. Kitob 8 bobdan iborat ular quyidagilardir:

- birinchi bob podsholar odati bayoni
- ikkinchi bob darveshlar axloqi bayoni
- uchinchi bob qanoatning fazilati bayoni
- to'rtinch bob sukut saqlashning foydalari bayoni
- beshinchi bob ishq va yoshlik bayoni
- oltinchi bob zaiflik va keksalik bayoni
- yettinchi bob tarbiyaning ta'siri bayoni
- sakkizinchi bob suhbat qoidalarini bayoni

Fors-tojik adabiyotining klassik namunasi bo'lmish asar soddalik, voqelikni to'g'ri yoritish bilan kitobxonni maftun etadi, asarning debocha qismida bu asarning yozilishi sabablari keltirilgan.

Birinchi bobi yuqorida e'tirof etganimizdek podshohlarga bag'ishlangan, ularning odatlari haqida hikoyalar keltirib o'tilgan. Birinchi hikoyatda bir podshoh asirni o'ldirishga buyruq beradi, asir ichidagi bor gaplarni aytadi, shoh vazirga nima deyapti deganda oq ko'ngil vazir podshohiga: "Har kimki azobini ichga yutar, u gunoh qilganning gunohidan o'tar"- deb aytadi. Shunda shoh uning aybini o'tmoqchi bo'lganda ichi qora vazir uning aybini oqko'ngil vazirining aldayotganini, asir aslida uni haqorat qilayotganini aytadi, shox uning gaplarini eshitib qaytaga yolg'on gap yaxshiroq edi deb ichiqora vazirga malomatlar qiladi va nifoq chiqaruvchi chin so'zdan maslahatli yolg'on yaxshi deb aytadi, qissadan xulosa shuki, yaxshilik yo'lida aytilgan yolg'on haqiqatdan a'loroqdir bunday ahamiyatga ega hikoyalardan 1-bobda jami 36 ta keltirilgan bo'lib barchasi didaktik xususiyatga ega. 2-bob darveshlar axloqi bayoniga bag'ishlangan bo'lib, unda ham kichik-kichik hikoyalar



keltirib o'tilgan. Undagi bir hikoyatda keltirishicha bir shayxning uyiga o'g'rilar tushadi va uydin o'g'irlashga hech narsa topolmaydi, xafa bo'ladilar buni sezgan shayx ularning ko'ngli o'ksimasin deya o'zi yotgan gilamni beradi, bu voqeaga quyidagi ajoyib paytlarni keltirib o'tadi:

Eshtimki tangri yozgan to'g'ri yo'ldan toyganlar

Dushman dilin ham xafa qilmas ekan hech qachon

Senga qachon shu o'ktamlik muyassar bo'lar ekan
do'sting bilan kelishmaysan urushasan har zamon

Xulosa shuki, ushbu hikoyadan inson Ollohni tanisa, dushmanini ham ko'nglini ranjitmaydi.

3- bob esa qanoatga bag'ishlangan bo'lib, uning fazilatlari va afzalliklari bayon etilgan, ushbu bobda jami qanoatga bag'ishlangan 21 ta hikoyat keltirilgan undagi hikoyatdan bir kuni Halabdagi bo'zchilik do'konigaga boradi va "Ey odamlar, agar sizlarda insof menda qanoat bo'lganda edi, dunyoda tilanchilar bo'lmagan bo'lardi,"- deb baqiradi. Ushbu hikoyadan xulosa shuki, qarz ikki qo'ldan chiqadi, insonlar qanotli bo'lishi kerak. Yana bir hikoyatida bir askar og'ir yaralanadi, ushbu dardning davosi bo'lgan giyoh esa bir ziqna sotuvchida bo'ladi. Askar shunda "Bermasa ham, bersa ham davo bo'lish bo'lmasligi noma'lum,"- deydi. Ulamolar uning gapiga tasannolar aytadi va agar obro'ni sotib hayot sotib olinayotgan bo'lsa, oqil odam sotilmaydi izzat bilan olmoqlikni afzal ko'radi deb aytadi, xulosa shuki, asarda nima bo'lganda ham inson qadrini yo'qotmasligi bayon qilingan.

To'rtinchi bobda sukut qilishning foydalari bayon etilgan va sukut saqlashga doir 12ta hikoyat keltirib o'tilgan. Undagi bir hikoyatda keltirilishiga bir yigit juda aqlli bo'ladi, lekin tabiatdan ko'p gapirishni xohlamaydi, shunda uning otasi sen ham o'zingni ko'rsat, bilganingni gapir deganda "Bilmaganlarimni so'rab qolishlaridan qo'rqaman, shuning uchun gapirmayman,"- deb javob beradi. Yana bir hikoyatida Jolinus yo'lda ketayotsa, bir johil donishmandning yoqasidan tutib urushayotganini guvohi bo'ladi, buni ko'rgan Jolinus: "Agar bu kishi donishmand bo'lganda edi, uning ishi johil bilan bu darajaga bormagan bo'lardi,"-deb aytadi. Xulosa qilib aytganda, inson qancha tilini tiysa, o'ziga shuncha foyda. Beshinchi bob yoshlik va ishq bayoniga bag'ishlangan bo'lib jami 11 ta hikoyatdan iborat. Undagi hikoyatlardan birida Maymandiydan so'radilar: "Ayozni nima uchun sen yaxshi ko'rasan, axir undan yaxshilar bor-ku,"- deya so'rashadi, shunda u: "Qalbga buyurib odamning yuzi mag'rubbo'ladi,"- deb javob beradi. Yana bir hikoyatda biro damning yiniga yori kelganda shaxd bilan turganidan sham o'chib qoladi, yor byning sasabini so'raganda oshiq: "Buning ikkita sababi bor: birinchisi sendek quyosh xonaga keldi, endi shamning xojati yo'q, ikkinchisi esa labi shirin yor xonaga kirdimi shamni o'chir deya aytishgan,"- deb aytadi. Bu insonni haqiqatdan ishqqa mubtalo inson desak, mubolag'a bo'lmaydi 6-bob esa zaiflik va keksalik bayoniga bag'ishlangan jami 8ta hikoyat keltirilgan bir hikoyatda bir diyorbakirlik odam o'g'lining aqlliligi, uni tilab-tilab olganligi haqida aytadi, shunda mehmon bu gaplarni eshitayotganda o'ynab yurgan bolalarning ichidan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



xuddi shu cholning o'g'li: "Meni tilab olgan sag'inaga borib otamning o'lishini so'ragan bo'lardim,"- deydi, shunda Sa'diy quyidagi baytni keltiradi:

Yillar o'tib ketdi, tepangdan g'ir-g'ir
Otang mozoriga bordingmi bir dam
Otang xotiraga nima ezgulik
Qildingki, o'g'lingdan kutasan sen ham.

Ushbu hikoyatdan xulosa qilish mumkinki, inson nima ekisa shuni o'radi. 8-bob esa suhbat qoidalari haqida bayon etilgan va hikoyatlar keltirib o'tilgan. Xulosa qilib aytganda "Guliston" asari ayni va ham kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda, asari 18-asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilingan.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Sa'diy Sheroziy "Guliston" "G'ofur G'ulom" nashriyoti, Toshkent:1968-yil
2. www.ziyouz.com
3. "Sa'diy Sheroziy ijod mahsuli" maqola. Nodira Rixsiboyeva
4. Xayrullayev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent:O'zbekiston, 1971,310-bet